

KOMPOZITSIYADA MUVOZANAT YARATISH TAMOYILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17713251>

Mamanazarov Diyorbek Xamza o'g'li

Navoiy 11-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tasviriy san'atda kompozitsion muvozanatni yaratishning nazariy va amaliy tamoyillari tahlil qilingan. Muallif kompozitsiya strukturasi, elementlar o'rtasidagi nisbat va ritm, vizual og'irlik, simmetriya va assimetriya, kontrast, markazlashuv hamda dinamik va statik holatlar orqali badiiy yaxlitlikni ta'minlash jarayonini ilmiy asosda yoritadi.

Kalit so'zlar

kompozitsiya, simmetrik kompozitsiya, asimmetrik kompozitsi, proporsiya, muvozanat, san'at, og'irlik markazi, shakl va rang, balanslangan kompozitsiya, balanssiz kompozitsiya, natryurmort kompozitsiyasi

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические принципы создания композиционного равновесия в изобразительном искусстве. Автор научно освещает процесс обеспечения художественной целостности посредством композиционной структуры, пропорций и ритма между элементами, визуального веса, симметрии и асимметрии, контраста, центрирования, а также динамических и статических ситуаций.

Ключевые слова

композиция, симметричная композиция, асимметричная композиция, пропорция, равновесие, искусство, центр тяжести, форма и цвет, сбалансированная композиция, неравновесная композиция, композиция натюрморта.

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical principles of creating compositional balance in the visual arts. The author scientifically illuminates the process of ensuring artistic integrity through compositional structure, proportion and rhythm between elements, visual weight, symmetry and asymmetry, contrast, centering, and dynamic and static situations.

Keywords

composition, symmetrical composition, asymmetrical composition, proportion, balance, art, center of gravity, shape and color, balanced composition, unbalanced composition, still life composition

Kirish. Simmetrik kompozitsiyalarda barcha qismlar o'zaro tenglashtirilgan bo'lsa, asimmetrik kompozitsiyada bu tenglik har doim ham saqlanmasligi mumkin. Masalan, katta yorug' dog'ni kichik va to'q rang bilan muvozanatlashtirish yoki o'lchami kichik bo'lgan bir necha dog'larni katta dog' bilan tenglashtirish mumkin. Kompozitsiyada muvozanatni saqlash uchun turli usullar qo'llaniladi, jumladan, shakl kattaligi, rang va tuslarning uyg'unligidan foydalaniladi. Shuningdek, sahnadagi ob'ektlar va ular orasidagi masofalar ham muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Maxsus mashqlar yordamida biz o'z kompozitsiyalarimizda muvozanatni shakllantirishni o'rganamiz. Bu jarayonda turli balandliklar, yorug' va to'q tuslar, shakllar hamda rang dog'larini uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, arg'imchoqda o'tirgan bolalarni muvozanatlash tajribamizni eslasak, katta yoshli bola bir tomonda o'tirsa, uni tenglashtirish uchun boshqa tomonga ikki kichik yoshli bolani joylashtirish zarur bo'ladi. Bunday muvozanat tamoyillarini tarozida ham kuzatish mumkin (64-65 r.).



1. A. Akbarxo'jayev.
Muvozanatlashtirilgan
kompozitsiya.





2. Muvozanatlashtirilgan
kompozitsiya qurilmasi.

Kompozitsiyalarda ranglar, shakllar va o'lchamlarning garmoniyasini topish muhimdir. Asimmetrik kompozitsiyalarda ba'zan mutlaq tenglik bo'lmaydi, chunki diqqat markazi kartinaning chet qismida joylashgan bo'lishi mumkin. Masalan, chizilgan tasvir oynada aks etganda, uning qabul qilinishi o'zgaradi. Shu bois, bunday kompozitsiyalarda tenglikni izlashda kompozitsiyaning umumiy holatini hisobga olish lozim.

Kompozitsiya qonun-qoidalari va usullari rassomlarning tajribasi hamda ijodiy mahoratiga asoslangan. Kompozitsiya yaratish texnologiyasi doimo o'zgarib boradi, u statik emas. Rassomlar ijodiy tajribasi ortgani sari, yangi usullar kashf etilib, san'at yanada boyib boraveradi.

Har bir element o'zining vizual og'irligiga ega bo'lib, bu uning o'lchami, rangi, shakli va tuzilishiga bog'liq. Yirik, yorqin yoki kontrastli elementlar katta vizual og'irlikka ega bo'ladi. Muvozanat yaratish uchun har bir elementning vizual og'irligini hisobga olish va uni kompozitsiya bo'ylab teng taqsimlash kerak.

Vizual og'irlik diqqat markazlarini yaratishda ham ishlatiladi. Masalan, muayyan qismda yorqin rang yoki yirik ob'ekt ishlatish tomoshabinning e'tiborini jalb qilib, uni kompozitsiya bo'ylab yo'naltirishi mumkin. Bu ayniqsa grafik dizayn va reklama sohasida muhim bo'lib, ma'lumotni samarali yetkazish va auditoriyani jalb qilishda yordam beradi.



3. a. J. Subxonov. Muvozanatli kompozitsiya.

4. b. J. Subxonov. Muvozanatsiz kompozitsiya.



Og'irlik markazi – bu kompozitsiya elementlarining taqsimlangan asosiy nuqtasi. Simmetrik kompozitsiyalarda u odatda markazda joylashadi, assimetrik kompozitsiyalarda esa chetga siljishi mumkin. Kompozitsiyani barqaror va uyg'un ko'rinishda saqlash uchun og'irlik markazini hisobga olish muhim.

Masalan, fotosuratda asosiy ob'ektni bir tomonda joylashtirish va bo'shliqni boshqa tomonda qoldirish vizual qiziqarli effekt yaratishi mumkin. Rassomlikda esa og'irlik markazi kompozitsiyaning umumiy tuzilishi va tomoshabin nigohini yo'naltirish uchun ishlatiladi.

Kompozitsiyada elementlarning o'zaro proporsiyasi va o'lchami muvozanatni yaratishda muhim rol o'ynaydi. Ob'ektlar bir-biriga mos keladigan


proporsiyalarda bo'lishi va umumiy miqyosga mos tushishi lozim. Masalan, manzara fotosuratida tog'lar orqa fonda, odamlar va daraxtlar esa old planda mutanosib bo'lib joylashishi kerak.

Proporsiyalar orqali chuqurlik va perspektiva hissi yaratish ham mumkin. Masalan, old planda katta, orqa planda kichik elementlardan foydalanish tasvirga fazoviylik beradi. Bundan tashqari, oltin kesim kabi matematik proporsiyalar vizual jozibador va muvozanatli kompozitsiyalar yaratishda yordam beradi.²²



5-rasm. Balanslangan kompozitsiya.

Balanssiz kompozitsiya



6-rasm. Tarkibdagi muvozanat sxemasi


²² <https://tech.wikireading.ru/7763>

Klassik san'atda muvozanat odatda simmetriya va proporsiyalar orqali ta'minlanadi. Masalan, Leonardo da Vinchining **"So'nggi kechki ovqat"** asarida barcha figuralar markazdagi Iso atrofida simmetrik joylashtirilgan, bu esa uyg'unlik va tartib hissini beradi (54-rasm).

Yana bir yorqin misol – **Rafaelning "Afina maktabi"** asari. Unda faylasuflar va olimlar shunday joylashtirilganki, natijada kompozitsiya barqaror va uyg'un ko'rinadi. Markazdagi Platon va Aristotel asosiy diqqat markazi bo'lib, atrofdagi personajlar esa muvozanatni saqlash uchun to'g'ri taqsimlangan (59-rasm).

Muvozanat nafaqat g'arb san'atida, balki o'zbek rassomlari ijodida ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, **L. Abdullayev** va **R. Choriyev** kabi o'zbek rassomlarining asarlarida muvozanatning an'anaviy va zamonaviy usullari ko'rinadi. Ularning ishlarida elementlarning mutanosib taqsimlanishi va ranglarning uyg'unligi san'at asariga ichki barqarorlik bag'ishlaydi.

Muvozanat kompozitsiyaning muhim elementi bo'lib, u vizual uyg'unlik va barqarorlik yaratishga yordam beradi. Simmetrik va assimetrik muvozanat turli usullarda qo'llanilib, san'at va dizaynda o'ziga xos ifodaviylik hosil qiladi. Muvozanatni shakllantirishda vizual og'irlik, og'irlik markazi va proporsiyalarni hisobga olish zarur. Bu tamoyillarni tushunish orqali siz o'z ishlaringizni yanada jozibador va professional ko'rinishda yaratishingiz mumkin.



7. Natryurmort kompozitsiyasi.

a. rangda muvozanatlashtirilgan kompozitsiya.

b. rangda muvozanatlashtirilmagan kompozitsiya.

ADABIYOTLAR:

1. Darslik. D.A.Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjibayeva "Kompozitsiya asoslari". "Yangi asr avlodi". Toshkent – 2009.
2. Ahmadjon Orinov "Ashyoda kompozitsiya" o'quv qo'l. T: Niso-Polifraf, 2017.
3. D.A.Nazilov, I.V.Dmitriyeva и N.X.Xadjiyeva, Kompozitsiya asoslari, Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009
4. I.Xvostova, «"Uchlik" belgisi. taqdimot,» в *Tretyakov galereyasi kollektsiyasi*, Rossiya, 2015

Internat saytlari.

1. www.tdpu.uz
2. . www.Ziyonet.uz